

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.K.Boyqo'zieva</b>	
Milliy madaniy merosimizni o'rganishda talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy jarayonlari .....	230
<b>N.V.Nosirov</b>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini metodik kompetentligini axborotlashgan ta'lim muhitida takomillashtirish .....	234
<b>G.Z.Ganiyeva</b>	
Ingliz tilidagi toponimlarni izohlashda leksikografik tamoyillar (buyuk britaniya va amerika joy nomlari lug'atlari misolida) .....	238
<b>Z.K.Abidova</b>	
Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini tashkil etishda loyiha metodidan foydalanish .....	244
<b>R.I.Madaliyev</b>	
Talaba-yoshlarda harbiy vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirish texnologiyasi .....	248
<b>M.X.Baybaeva, I.A.Imomov</b>	
Talabalarning xulq atvoridagi nizoli vaziyatlarni pedagogik tashxis etishning sinergetik-tuzilmasining talqini .....	252
<b>I.A.Imomov</b>	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lim jarayonida talabalarda yuzaga keladigan nizolarning pedagogik tahlili .....	256
<b>L.M.Sokolova</b>	
Farg'ona vodiysi hunarmandlari postindustrial dunyoda .....	261
<b>S.O'Boybo'riyeva</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq odobini shakllantirish muammolari .....	268
<b>Sh.X.Xankeldiyev, D.K.Karimov</b>	
Yosh akrobatlarning xarakter-texnik tayyorgarligi metodologiyasining kumulyativ samaradorligini o'rganish .....	272

---

IQTISODIYOT

<b>X.X.Bozarov</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning xususiyatlari .....	277

---

FALSAFA

<b>Z.A.Boboyeva</b>	
San'atning badiiy adabiyot turi uzluksiz ma'naviy tarbiyaning muhim omili .....	283
<b>I.A.Xo'jaxonov</b>	
Huquqiy targ'ibot jarayonida ommaviy axborot vositalarining o'rni .....	288
<b>U.M.Mamajonov</b>	
Musiq madaniyati darslarida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatini rivojlantirishning muhim shartlari .....	293
<b>M.B.Yuldasheva</b>	
Biolog talabalarni kasbga yo'naltirilgan yondashuv orqali til o'qitish bo'yicha taklif .....	298
<b>B.M.Qandov</b>	
Global ekologik muammolar: shaxs dunyoqarashi va milliy qadriyatlari tizimidagi o'zgarishlar .....	302
<b>O.T.Berkinov</b>	
Kibermakonda mavjud o'ziga xos tahdidlar .....	308
<b>I.Ismoilov</b>	
Jinoyatga jazo tayinlashga oid ayrim xorijiy davlatlar tajribasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari .....	311
<b>A.A.Sayitxonov</b>	
Milliy qadriyatlar– ma'naviy tarbiyaning mafkuraviy asosi .....	316
<b>Z.O.Muminova</b>	
Tafakkur tarzi va jamiyat mafkuraviy tizimining ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri .....	320
<b>A.A.Isomiddinov</b>	
Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning ijtimoiy-madaniy omillari .....	324

**JINOYATGA JAZO TAYINLASHGA OID AYRIM XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASINING  
IJTIMOIY-FALSAFIY JIHLARI**

**СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ОПЫТА УГОЛОВНЫХ НАКАЗАНИЙ  
НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН**

**SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF SOME FOREIGN COUNTRIES' EXPERIENCE  
ON CRIMINAL PUNISHMENT**

Ixtiyorjon Ismoilov<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Ixtiyorjon Ismoilov

– Farg'ona davlat universiteti, doktorant

**Annotatsiya**

*Bir necha jinoyat shakllarining huquqiy belgilari va jazo tayinlashdagi ahamiyati atroflicha o'rganilgan. Bir qancha jinoyatlarning yuridik ahamiyati va shakllari jazo tayinlash, javobgarlik va jazodan muddatidan oldin ozod qilish va jazoni o'tab bo'lgandan keyingi huquqiy oqibatga oid masalalarni hal etishga ta'sir qilishi tadqiq etilib, mazkur tushunchaga oid yondashuvlar o'rganilib, mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan. O'z navbatida, hozirgi vaqtda bir qancha jinoyat tushunchasi bo'yicha yagona yondashuvning mavjud emasligi, uning aniq ilmiy va huquqiy ta'rifi yo'qligi, bir qancha jinoyat shakllari yuzasidan jazo tayinlashda muammolarning mavjudligi va bu borada yagona ta'rifi ishlab chiqish zarurligi, takroran jinoyat sodir etish normasidan voz kechish lozimligi, jinoyatlar majmui tushunchasiga yangicha ta'rif berish, o'ta xavfli retsidiv jinoyat tushunchasini jinoyat qonunchiligidan chiqarish lozimligi, shaxsga nisbatan asossiz ravishda og'ir jazo tayinlanishining oldini olish, retsidiv jinoyat uchun jazo tayinlash normasining huquqiy oqibati shaxsni jazodan va javobgarlikdan ozod etilmasligida namoyon bo'lishi alohida o'rganilgan.*

**Аннотация**

*Подробно изучены юридические признаки нескольких форм преступления и их значение при назначении наказания. Было изучено влияние юридической значимости и форм нескольких преступлений на определение вопросов, связанных с назначением наказания, досрочным освобождением от ответственности и наказания в виде штрафа и юридическими последствиями после отбытия наказания, изучены подходы к этому понятию и разработаны авторские определения. В свою очередь, отсутствие единого подхода к понятию нескольких преступлений на данный момент, отсутствие его четкого научно-правового определения, наличие проблем при назначении наказания за несколько видов преступлений и необходимость выработки единого определения в связи с этим, необходимость отказа от норм о повторном преступлении, дающая новое определение понятию, отдельно изучается проявление правовых последствий нормы о назначении наказания за рецидив при отсутствии освобождения лица от наказания и ответственности.*

**Abstract**

*The legal signs of several forms of crime and their importance in the appointment of punishment have been studied in detail. The influence of the legal significance and forms of several crimes on the determination of issues related to the appointment of punishment, early release from liability and punishment and the legal consequence after serving the sentence was studied, approaches to this concept were studied and author's definitions were developed. In turn, the absence of a single approach to the concept of several crimes at the moment, its lack of a clear scientific and legal definition, the presence of problems in the appointment of punishment for several forms of crime and the need to develop a single definition in this regard, the need to abandon the norm of repeated crime, give a new definition of the concept, the manifestation of the legal consequence of the norm of prescribing punishment for a recidivism in the absence of exemption from punishment and liability of a person is studied separately.*

**Kalit so'zlar:** fuqarolik jamiyati, huquq, huquqiy madaniyat, jazo, o'lim jazosi, jinoyat va jazo, javobgarlik.

**Ключевые слова:** гражданское общество, право, правовая культура, наказание, смертная казнь, преступление и наказание за него, ответственность.

**Key words:** civil society, law, legal culture, punishment, Capital Punishment, crime and punishment, responsibility.

**KIRISH**

Ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunlarini tajribalarini qiyosiy tahlil qilinib, ijobiy tomonlarini milliy qonunchiligimizga tatbiq etib, ushbu taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligini liberallashtirish siyosatiga to'la mos kelishini asoslantirgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasining

tasdiqlanishidan maqsad ham milliy xususiyatlar va sharoitlarni e'tiborga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligiga ilg'or xorijiy tajribani implementatsiya qilishdir.

Bugungi kunda jahonda bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash borasida yagona tajribaning mavjud emasligi, jinoyat-huquqiy manbalar va huquq tizimlarining alohida ekanligi (roman-german, anglo-sakson va MDH mamlakatlari jinoyat qonunchiligi)dan kelib chiqib, bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash chegarasi bo'yicha ma'lumotlar ikki guruhga ajratilib tahlil qilingan.

Birinchi guruhga kiruvchi davlatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, GFR) ning jinoyat qonunchiligini o'rganish asosida jinoyatlar jamini hukm qonuniy kuchga kurgunga qadar sodir etilgan jinoyatlar tashkil etishi va bir qancha jinoyatlarning shakli bo'lgan retsdiv jinoyatlar uchun sanksiyada ko'rsatilgan jazoning ikki barobari miqdorida jazo tayinlanadi, degan xulosaga kelingan.

Ikkinchi guruhdagi davlatlar (MDH davlatlari: Armaniston, Belarus, Moldova, Ozarbayjon, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina hamda Gruziya) jinoyat qonunchiligida hukm chiqarilgunga qadar sodir etilgan jinoyatlar uchun bir necha jinoyat yuzasidan jazo tayinlanadi, shuningdek ushbu normalarni o'rganish natijasida bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazolarni qo'shish qoidalariga o'zaro farqlanishi aniqlangan. O'zbekiston Respublikasi JKning bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlashda jazolarni qo'shish qoidalariga oid normasiga tegishli o'zgartirish kiritish zarurligi asoslab berilgan.

Voyaga yetmaganlar uchun bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash liberallashtirilishi, xususan, «Shaxs retsdiv va xavfli retsdiv jinoyat sodir etganda uning o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar sodir etgan jinoyati uchun sudlanganligi, shuningdek qonunda belgilangan tartibda sudlanganlik muhlatlarining o'tib ketganligi yoki olib tashlangan sudlanganligi inobatga olinmaydi.

JKning 59- moddasiga ko'ra bir necha jinoyatlar uchun jazo tayinlashga oid normada faqat bir qancha jinoyat shakli bo'lgan jinoyatlar majmui nazarda tutilgan. Shu bois ushbu normaga tegishli o'zgartirish kiritishi lozimligi asoslantirilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008 yil 5 maydagi «Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to'g'risida»gi qarori 17- bandiga ko'ra retsdiv jinoyat deb topish uchun shaxs tomonidan muqaddam sodir etgan jinoyati tufayli sudlangandan so'ng, yangi jinoyat sodir qilganligi talab etilishi tufayli oxirgi jinoyat sodir etilgan vaqtni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bunda JPK 528-531-moddalari mazmuniga ko'ra shaxs unga ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganligi to'g'risida e'lon qilingan paytdan boshlab sudlangan, deb topiladi. Hukm e'lon qilingan vaqtdan boshlab uning qonuniy kuchga kirganligi mahkumga e'lon qilingunga qadar o'tgan vaqt ichida sodir etilgan yangi jinoyat retsdiv jinoyatni tashkil etmaydi. Shunday ekan hukm qonuniy kuchga kurgunga qadar sodir etilgan jinoyatlar bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlashni ham tashkil etmasligi kerak. Dissertant tomonidan sud amaliyotidagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlashda jinoyatning sodir etilgan vaqtini jinoyat qonunchiligida aniq belgilash lozimligi asoslantirilgan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jazo tayinlashning jinoyat huquqi nazariyasi va jinoyat qonunchiligidagi ahamiyati tatqiq etilib, mazkur tushunchaga oid yondashuvlar va mavjud ta'riflar o'rganib chiqilgan. O'z navbatida, hozirgi vaqtda jazo tayinlash tushunchasi bo'yicha yagona yondashuvning yo'qligi hamda unga aniq ilmiy va huquqiy ta'rif berilmaganligi, uning huquqiy maqomi jinoyat-huquqiy siyosat doirasida kompleks, tizimli o'rganilmaganligi, birinchi navbatda, bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlashning nazariy qoidalarini tatbiq etish va jinoyat qonunchiligini amalda qo'llashda jinoyat huquqining qator institutlari bilan uzviy bog'liqligi alohida ko'rsatilgan va O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi statistika ma'lumotlaridan foylanilgan. Ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra 82% ishtirokchilar takroran jinoyat sodir etishga oid normani JKdan chiqarilishi maqsadga muvofiq deb topishgan. Chunki muallifning ta'kidlashicha, bir qancha jinoyat shakllarining yuridik ahamiyati shundan iboratki, bir qancha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash, javobgarlikdan va jazodan muddatidan oldin ozod qilish va jazo o'talganidan keyingi huquqiy oqibatga oid masalalarni hal etishga ta'sir qiladi. Shuningdek, qator olimlar (A.S.Yakubov, B.Matlyubov, A.K.Irkaxodjeyev U.SH.Xalikulov, M.Rustamboyev, R.Zufarov, I.A.Sarokin)ning fikrlaricha, bir qancha jinoyat shakli bo'lgan takroriy jinoyatning qonunchilikda belgilangan ta'rifi qonunni qo'llash faoliyati jarayonida, jinoyatlar majmuini kvalifikatsiya qilishda va jazo tayinlashda ikki xil hisobga olishga olib kelganligi, jinoyat takroran sodir etilgan deb topilganida, har doim

## FALSAFA

jazoning og'irroq turi tayinlanishi, ya'ni qilmish takroran sodir etilgan, deb kvalifikatsiya qilinib, jazo tayinlanadigan bo'lsa, muayyan normaning javobgarlikni og'irlashtiruvchi turi sifatida qaralishi jinoyatni avtomatik tarzda og'ir yoki o'ta og'ir turiga aylantirib yuboradi. Buning natijasida shaxsga nisbatan javobgarlik yoki jazodan ozod qilishni qo'llash mumkin bo'lmay qoladi. Shu sababli bir necha jinoyat va bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlashda jinoyat qonunini liberallashtirish va soddalashtirish maqsadida takroran jinoyat sodir etish institutidan voz kechish lozim.

Bir necha jinoyat yoki bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlayotganda turli xil jazolarni qo'shishni jazoni o'tashdan bo'yin tovlaganlik tufayli jazolarni almashtirishdan farqlash lozim. Ozodlikni cheklash jazosi ozodlikdan mahrum qilish jazosiga nisbatan yengilligini hisobga olib, sud amaliyotidagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida jazolarni qo'shib hisoblash qoidalari nazarda tutilgan JKning 61-moddasiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish taklif etilgan.

**NATIJARLAR**

Ma'lumki har bir davlatning rivojlanishi, kelgusi taraqqiyotjarayoni uning kelajagi bo'lgan yosh avlodga bo'layotgan munosabatida, ularga berilayotgan ta'lim va tarbiyada, o'z imkoniyatlarini to'la ochib berishlari uchun berilayotgan e'tibor va munosabatlarda namoyon bo'ladi. Shu sababli, bugungi kunda Respublikamizda ayni shu borada amalga oshirilayotgan ishlar har tomonlama tahsinga sazovor deyish mumkin. Yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar egasi bo'lishi va shu orqali hayotdao'zining munosib o'rnini egallashi, bugungi kunda davlat rahbarining e'tiborida turgan asosiy masalalardan biri ekanligini, Prezidentning 2022 yil 20 dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida "Ta'lim sohasidagi navbatdagimuhim yo'nalish, bu – yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashi uchunbarcha zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat"ligi bo'yicha bildirgan fikrlarida ko'rinib turibdi.

Yoshlarni o'tish davrida band qilish, ularga hayotda o'zlari uchun munosib o'rin egallashlari uchun imkoniyatlar yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishiga qarshi kurashish, profilaktik ta'sir-choralarini amalga oshirish hamda voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga oid qator maqsadli chora-tadbirlar: voyagayetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish; voyaga yetmaganlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish; ularga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazolarni yanadaliberallashtirish, ularning huquqlarini himoya qilishga oid qatoryutuqlarga erishilmoqda.

Ammo har bir jamiyatda tarbiyasida nuqsonga ega, yoki boshqa salbiyxususiyatga ega tashqi ta'sirlar natijasida hayotda o'z o'rnini topishgaqiyinalayotgan va shu sabab o'zi bilib, bilmay jinoyat olamiga tushibqolayotgan yoshlarning ham borligi hali bu borada soha vakillari oldidaamalga oshirilishi lozim bo'lgan yana bir qator vazifalar borligini ko'rsatib bermoqda.

Shu sababli mazkur maqolada ayrim rivojlangan xorijiy davlatlarning voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish bo'yicha ilg'or tajribalarini o'rganish va tahlil etish maqsad qilindi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda Amerika Qo'shma Shtatlarining tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u o'ziga xos tizim va ilg'or tajribaga ega davlat hisoblanadi.

Mazkur davlatda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishgaqaratilgan o'ziga xos normativ baza shakllantirilgan bo'lib, bu boradaAQShning "Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari profilaktikasi va sudlovi to'g'risida"gi[1]. qonunini aytib o'tish maqsadga muvofiq deb o'ylamiz chunki AQShda voyaga yetmaganlar huquqlarini kafolatlashga oidqonunlarning kodifikatsiya qilinganligi bu boradagi masalagadavlatning aniq pozitsiyasi mavjudligini yaqqol ko'rsatadi. Xususan, Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari to'g'risidagi federal kodeksda[2] voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarni sud tartibida hal etish mexanizmlari belgilabqo'yilgan.

AQShda jinoyatlarning oldini olish faoliyatining uchta modeli tashkil qilingan:

- 1) jamoat tashkilotlarining modeli;
- 2) individ xavfsizligi modeli;
- 3) atrof-muhit orqali ta'sir ko'rsatish modeli.

Muhokama(Obsujdeniye/Discussion). Jinoyatlarning oldini olish dasturi federal va mahalliydarajada amalga oshiriladi. Ayrim shtatlarda huquqiy tartibotnimustahkamlashda fuqarolarning ishtiroki talonchilik jinoyati sonini 30 foizga kamayishiga yordam bergan. Tezkor-profilaktik ahamiyatdagima'lumotlarni yetkazganlik uchun mukofotlash usulidanfoydalaniladi [3].

Shuningdek, Germaniyada voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish bo'yicha politsiya tajribasini ham namuna sifatida keltirish mumkin. Germaniyada voyaga yetmaganlarning jinoyatchiligiga qarshi kurash strategiyasi quyidagi qoidalar asosiga qurilgan:

o'smirlarning qonunga xilof harakatlarni sodir etishgaberiluvchanligi shaxs shakllanish jarayoni tugallanganidan so'ng juda ko'p vaziyatlarda biror-bir tashqi ta'sirlarsiz yo'qoladi;

davlat organlari tomonidan qo'llaniladigan jazo choralariko'plab salbiy oqibatlariga olib keladi.

Fransiyada "Bolalarga nisbatan zo'rvonlikning oldini olish to'g'risida"gi qonun (2007 y.) bilan bolalarga nisbatan zo'rvonlik holatlari kuzatilganda tezkorlik bilan davlat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish lozim ekanligi belgilangan. Ushbu ma'lumotlarni bila turib huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar bermagan shaxslar 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilinishi yoki 45 ming evro miqdorida jarimaga solinishi mumkin[4]. Bundan tashqari, Fransiyada bir qator ayollar yoki voyaga yetmaganlar murojaat qilishi mumkin bo'lgan markazlar mavjud bo'lib, ularga murojaat qilish uchun "3919-ishonch telefoni"ga qo'ng'iroq qilish amaliyoti mavjud. Agarda, oiladagi holat shuni talab qilsa, zo'rvonlik qurboniga tashkil etilgan uylarga borib yashash taklif qilinadi[5].

Yevropa Ittifoqi davlatlarida jinoyatlarning oldini olishning ikkita darajasi ajratiladi: ijtimoiy va vaziyatli. Ijtimoiy oldini olish jinoyatchi shaxsining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy sharoitlarni o'zgartirishga qaratilgan. Bunday tushuncha jinoyatlarni bartaraf qilish va oldini olish tushunchalariga to'g'ri keladi [6].

Yaponiyada 1980 yildan politsiya bosh boshqarmasi tarkibiga kiruvchi 7 ta voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha markazlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bu kabi o'xshash markazlar joylarda ham tuzilgan bo'lib, politsiya organlari tomonidan rahbarlik qilinadi. Bundan tashqari, 1978 yilda shaharlarda, aholi punktlarida va qishloqlarda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha 548 ta markaz tashkil etilgan[7].

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda ham o'rganilayotgan masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Buni so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasi ham yaqqol tasdiqlaydi. Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda ichki ishlar organlarida ishlaydigan psixolog-pedagoglar maktabini yaratish, oliy o'quv yurtlarida psixolog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish borasidagi vazifalarning belgilanganligi[8] bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Xususan, pedagog-psixolog kadrlarni tayyorlash va ular faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tizimida 2.503 nafar, xalq ta'limi tizimida 14.272 nafar pedagog-psixolog kadrlar faoliyat olib bormoqda.

### XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining xususiyatlari va uning oldini olishga doir rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasining o'ziga xos xususiyatlari: birinchidan, huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligi ularda tatbiq etilgan maxsus dastur hamda loyihalarga bevosita bog'liqligida; ikkinchidan, voyaga yetmaganlar huquqlarini kafolatlashning huquqiy mexanizmlarining kodifikatsiya qilinganligida; uchinchidan, «voyaga yetmaganlar huquqi («yuvonalnoye pravo»)» ning mustaqil huquq tarmog'i sifatida e'tirof etilganligida; to'rtinchidan, voyaga yetmaganlar huquqlarini himoyalash darajasini oshirish uchun voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha odil sudlov tizimining joriy etilganligida namoyon bo'ladi.

Jinoyatga jazo tayinlash masalasini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

#### **1. Jinoyat huquqi nazariyasini rivojlantirish bo'yicha xulosa va tavsiyalar:**

1. Jazo tayinlashning quyidagi ta'rifi ishlab chiqildi: «jazo tayinlash–jinoyat qonun hujjatlariga muvofiq JKning prinsiplariga asoslangan holda sud tomonidan jinoyat sodir etganlikda aybdor bo'lgan shaxsga tayinlanadigan jazo turi va miqdorining belgilanishi».

2. Bir qancha jinoyatning quyidagi ta'rifi ishlab chiqildi va uni JK sakkizinchi «Atamalarning huquqiy ma'nosi» bo'limiga kiritish taklif etildi:

– «bir qancha jinoyat sodir etish – shaxsning ikki yoki undan ortiq jinoyatni sodir etishi».

3. Jinoyatlar majmui tushunchasiga oid olimlarning fikrlari to'rt guruhga ajratilgan holda tahlil qilingan:

– birinchi guruhdagi olimlar jinoyat qonunchiligidagi jinoyatlar jami bilan jinoyatlar majmui tushunchalarini sinonim tushunchalar sifatida qaraydilar;

## FALSAFA

– ikkinchi guruh olimlari hukm chiqqunga qadar sodir etilgan jinoyatlarni jinoyatlar majmui sifatida ta'kidlaydilar;

– uchinchi guruh olimlar, JKning 33-moddasi qoidalaridan kelib chiqqan holda, shaxsning sudlanmaganligini jinoyatlar majmui uchun asos sifatida ko'radilar;

– to'rtinchi guruhdagilar esa ilgari sodir etgan jinoyatlari uchun tayinlangan jazoni to'liq o'tab bo'lgunga qadar ikki yoki undan ortiq jinoyatlarning sodir qilinishiga jinoyatlar majmui sifatida ta'rif beradilar.

4. Bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlashda yuridik fakt sifatida sodir etilgan jinoyatning vaqti yuzasidan xorijiy davlatlar olimlarining fikrlari shartli ravishda ikki guruhga ajratildi:

– birinchi guruhdagilar hukm chiqarilgan, lekin hali qonuniy kuchga kirmagan holda mahkum tomonidan yangi jinoyat sodir qilinishi bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash uchun asos bo'ladi deb hisoblaydilar;

– ikkinchi guruh olimlari mahkumga sud tomonidan jazo tayinlangan holda yangidan jinoyat sodir etishi uning ijtimoiy jihatdan yuqori xavflilik darajasi saqlanib qolishini ta'kidlab, mazkur shaxslar tomonidan birinchi marotaba jinoyat sodir qilingandan so'ng faqatgina sud hukmi qonuniy kuchga kirgach, yangi jinoyat sodir qilinishi bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash qoidalari qo'llanilishiga sabab bo'lishini ta'kidlaydilar.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Juvenile Justice and Delinquency Prevention Act of 2002 // [Elektron manba]: <https://www.ojjdp.gov/about/ojjdpact2002.html> (murojaat vaqti: 12.11.2019 y.).

2. Federal juvenile delinquency code // [Электрон манба]: <https://www.justice.gov/jm/criminal-resource-manual-117-federaljuvenile-delinquency-code> (murojaat vaqti: 08.06.2019 й.).

3. Voronin Y.A. Preduprejdeniye prestupnosti v zarubejnix stranax // Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta, 2012. № 27 (281). – S. 88.

4. Astanov I. Oiladagi zo'ravonlikning sabab va sharoitlari, profilaktikasi hamda xorijiy tajriba // Oilalardagi zo'ravonliklarning sabab va sharoitlari, profilaktikasi hamda xorij tajriba: respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi matmalleri. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. -B. 51.

5. Murodov A.SH. Ichki ishlar organlarining oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish: yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi – T., 2019. – B. 100.

6. Asyayeva V.M. Osobennosti preduprejdeniya prestupleniy v zarubejnix stranax // NovalInfo.Ru, 2013. 18. – S.2.

7. Bakayev A.A., Ostapenko N.I. Sistema profilaktiki pravonarusheniy nesovershennoletnix. – M., 2003. – S. 136–137

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 472-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.06.2019 y., 09/19/472/3253-son.